



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
tarbiya fani o'qutivchisi

_____ning
20__-20__-o'quv yiliga 5-sinflar uchun
II yarim yillik

DARS
ISHLANMALARI

“TASDIQLAYMAN”
O‘IBDO‘ _____

**20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan tarbiya fanidan II yarim yillik
taqvimiy mavzu rejasi**

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	Oiladagi hayot. (BSB topshirig'ining baholash mezonini e'lon qilish)	1		
2.	Jamoalar	1		
3.	Jamoalar	1		
4.	Men va mening kelajagim	1		
5.	Men va mening kelajagim	1		
6.	Hissiyot va emotsiya	1		
7.	Hissiyot va emotsiya	1		
8.	Sog‘lom ovqatlanish	1		
9.	BSB - 2. (50 ball) Ijodiy ish(sahna ko'rinishi)	1		
10.	Xavfsiz faol hayot	1		
11.	Odob nima?	1		
12.	Otameros qadriyatlarimiz	1		
13.	Otameros qadriyatlarimiz	1		
14.	Axborot tamaddumi. Internet	1		
15.	Internetdagi ishonchli va ishonchsiz axborot	1		
16.	Yulduzlar sari	1		
17.	ChSB - 2. (40 ball)	1		
18.	Yakuniy umumlashtiruvchi dars	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oiladagi hayot. (BSB topshirig'ining baholash mezonini e'lon qilish)

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarga vatan, ijtimoiy hayot, qonunlar, fuqaroning huquq va majburiyatlari haqida yanada ko'proq bilim berish, jamoa bilan birga ishlashni, boshqalarga yordam berish, bahs-munozaralarda o'zini tutishga o'rgatish.

Tarbiyaviy: his tuyg'ularini, hayotdagi maqsadini yaxshiroq tushunib oladilar, orzulariga qanday erishishni o'rgatish. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash qanchalik muhimligini, buning uchun nima qilish kerakligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O'zbekistonning munosib farzandi bo'lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.


II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Oila - hayoti bir umr bir-biriga bog'liq insonlar guruhi. Oilada har bir insonning o'zni bor, biriga tikan kirsa, hammaning joni og'riydi. Oila a'zolari birga, ko'pincha bir uyda yashaydi. Farzandlar ko'p bo'lsa, ular ham oila qurib, alohida yashashi mumkin, ammo qayerda bo'lmasin, ularyagona oila, ularning hayoti bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun oiladagi muhim voqealarda - bayramlarda, to'ylarda, farzand tug'ilganda yoki kimdir vafot etganda hamma qarindosh-urug'lar to'planadi.

Qarindoshlar - yaxshi-yomon kunda birga bo'ladigan, hayotning quvonch-u tashvishlarini birga baham ko'radigan yaqinlarimiz. Oila a'zolari bir-birini yaxshi ko'radi, hurmat qiladi. Doim bir-birini qo'llab-quvvatlaydi, yordam beradi. Yutuqlarimizni ham, muammolarimizni ham birinchi bo'lib biladiganlar shulardir. Ular bizni yaxshi ko'radi, g'amxo'rlik qiladi, yordamini ayamaydi.

Har bir oilaning o'z an'analari, tartib-qoidalari bor. Ba'zi oilalarning qoida,



an'analari bir-biriga o'xshaydi, masalan, har xil bayramlarni tabiat qo'ynida nishonlashadi. Lekin o'ziga xos an'analar ham bo'ladi.

Ba'zi an'analar avloddan avlodga o'tadi, ba'zi oilalaresa ularni o'zlari o'ylab topadi. An'analar tufayli inson o'zini buyuk madaniyatning bir qismi deb his qiladi. Ular tufayli bir umr unutilmas xotiralar shakllanadi. Keyin biz ham oilamizda ana shunday nxayrli an'analarni davom ettiramiz va yangilarini yaratamiz.

Buvim birdan kasal bo'lib qolib, onam buvimga qarash uchun jo'nab ketdi. Onam ketgandan keyin dadam bilan hammamiz o'tirib, ishlarni qaytadan taqsimlab oldik. Onam qiladigan ishlarni o'zimiz bajaradigan bo'ldik: opam ovqat qiladi, idish-tovoq, kiriyuvadi, men uyni yig'ishtiraman, dadam bozor-o'char qilib, kelishda ukamni bog'chadan olib keladi. Ukam endi ko'proq dadamning yonida o'tirib, uxlashdan oldin ham dadamdan ertak eshitadigan bo'ldi. Onamni rosa sog'inyapmiz, buvim tezroq tuzalsin, deb duo qilyapmiz. Har kuni kechqurun to'planib, dadamning noutbukidan onamga qo'ng'iroq qilib gaplashamiz, buvimning ahvolini so'raymiz, onam esa "Dadangga, ukangga yaxshi qaranglar", - deydilar.



Oila - biz tug'ilib o'sadigan tabarruk maskan. Bola yoshligida o'z oila a'zolari va ularning eng yaqin do'stlaridan boshqa hech kimni tanimaydi. Yurishni, gapirishni, eng oddiy va eng muhim ishlarni qilishni ham oilada o'rganadi.

Oila bizni katta dunyoda yashashga asta-sekin tayyorlab boradi. Oilada biz qoidalarga rioya qilishni, erkin muloqot qilishni, boshqalarga g'amxo'rlik qilishni, janjallashishni va yarashishni, o'z fikrimizni himoya qilishni, birovning haq-huquqini, vaqtini hurmat qilishni, tozalikka rioya qilishni, pul sanashni, yordam so'rash va yordam berishni, kelishib olishni, zimmamizga olgan majburiyatlarni bajarishni o'rganamiz. Shuning uchun oila haqiqiy hayot maktabidir. Bu maktabda darslar, mashg'ulotlar bolmaydi, lekin oilada yashab, bilmaganlarimizni o'rganamiz.

Bola uchun oila - unga eng yaqin, uni dunyoda eng yaxshi ko'radigan qadrdon insonlari. Oila a'zolari bir-birini nafaqat yaxshi ko'rishi, balki ularning ba'zi kamchiliklariga sabrqilishi, ularni to'g'ri tushunishi, tanqiddan ko'ra qo'llabquvvatlashi kerak. Yaqinlar bir-birining faqat kamchiliklarini tanqid qilavermay, balki ularning yutuqlari, iste'dodi, qobiliyatini ham maqtashi, ularni tushunishi, ularga ishonishi kerak. Mana shu qo'llab-quvvatlash tajribasi keyinchalik qiyin paytlarda asqatadi.

Maratning rukzagi eskirib, yirtilib qoldi.

Shuning uchun oyisi bilan yangi rukzak olish uchun do'konga kelishdi.

- Qara, Marat, mana bunisi yaxshi ekan, unchamunchaga yirtilmaydi, - dedi oyisi kulrang rukzakni ko'rsatib.

- Yo'q, menga yoqmadi, oyi. Mana buni olaylik, rasmlari bor ekan, cho'ntaklari ham ko'p.

- Sal qimmat ekan-da. Ustiga-ustak bu uzoqqa chidamaydi, Marat. Boshqalarini yana ko'raylik-chi.

- Oyi, bunisi-chi? - dedi Marat yaltiroq tugmali ko'k rukzakni ko'rsatib.

- Ha, bu baquvvat ekan. Lekin haddan tashqari jimjimador emasmi?

-Yo'q, bo'laveradi, oyi. Menga shunaqasi yoqadi o'zi.



- Bo'пти, shuni olamiz unda.

Uzoq vaqt birga yashaydigan odamlarning ham dunyoqarashi turlicha bo'lishi mumkin. Nimani sotib olish, vaqtni qanday o'tkazish, pulni qanday sarflash, tartibni saqlash va, umuman, shu kabi boshqa bir masalada ham ularning fikri mutlaqo har xil bo'lishi mumkin.

Oiladagi hayot tinch-totuv bo'lishi uchun boshqalarning fikri, qiziqishlari va xohishistaklarini hurmat qilish kerak. Fikrlarning har xil bo'lishi muammo emas. Muammo -

buning janjalga aylanib, oraga sovuqchilik tushishi. Oilada kattalar hurmat, kichiklar izzat qilinsa, hamma bir-birining manfaatlarini hurmat qilsa, to'g'ri tushunsa, barchaga ma'qul keladigan yo'lni istalgan paytda topish mumkin. Har bir insonning o'ziga tegishli hududi, shaxsiy narsalari bo'ladi. Masalan, o'zining xonasi, o'zining buyumlari, bo'sh vaqti, qiziqadigan mashg'ulotlari bo'lishi mumkin. Odamlar bir-birining ana shu shaxsiy hududi, narsalarini hurmat qilishi, ularning chegarasini buzmasligi kerak. Shuning uchun bironing narsasini olmoqchi bolsak, egasidan ruxsat so'rash kerak, xonasiga kirayotganda eshikni taqillatib, kirishga ruxsat so'rash kerak, uyga mehmon chaqirmoqchi bo'lsak, oiladagilar bilan kelishib olish kerak. Har bir odam o'zining uyida o'zini xotirjam, xavfsiz his qilishi lozim.

Fizikadan nazorat ishi edi. Ikki

baho olibman. Xafa bolib, xonamga qamalib oldim. "Shunchalik ham ahmoq bo'lamanmi?" der edim o'zinga o'zim. Shu payt eshik taqilladi. Dadam ekan.

- Xafa bo'lma, o'g'lim. Yur, ovqat yeb olaylik. Nima qilishni keyin o'ylab ko'ramiz, - dedi dadam sekingina.

Chiqsam, stolda qo'lda chizilgan rasm turibdi. Unda Quyosh, uyimiz, chiroyli gullar chizilgan ekan. - Bu sizga! - dedi singlim.

- Nima bo'ldi, o'g'lim? - so'radi oyim. - Rosa tayyorlanganding-ku!

- Bilmasam. Bugun negadir hech kalam ishlamadi, - dedim men.

- Mayli, bo'pturadi. Nazorat ishi ekan-ku, qaytadan topshirsang bo'ladi.

To'g'ri, o'yladim men. O'zi fizikani yaxshi ko'raman, qiziqadigan fanim. Lekin negadir masalani yecha olmadim. O'zinga ortiqcha ishonib yuboribman, shekilli.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Oilada qanday tadbirlar, yumushlar birgalikda bajariladi? Sizning oilangiz qaysi tadbirlarni birgalikda o'tkazishni yaxshi ko'radi?

2. Kelajakda oilangizdagi qaysi an'analarni davom ettirmoqchisiz?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Oilangiz haqida esse yozing yoki taqdimot tayyorlang.



O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Jamoalar

Darsning maqsadi:

Ta'limiy: o'quchilarga vatan, ijtimoiy hayot, qonunlar, fuqaroning huquq va majburiyatlari haqida yanada ko'proq bilim berish, jamoa bilan birga ishlashni, boshqalarga yordam berish, bahs-munozaralarda o'zini tutishga o'rgatish.

Tarbiyaviy: his tuyg'ularini, hayotdagi maqsadini yaxshiroq tushunib oladilar, orzulariga qanday erishishni o'rgatish. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash qanchalik muhimligini, buning uchun nima qilish kerakligi haqida tushuncha berish.

Rivojlantiruvchi: mustaqil ishlash va fikrlash orqali bilim olishga, xotirani mustahkamlashga, tez fikrlashga o'rgatish, fanga qiziqishini ortirish, O'zbekistonning munosib farzandi bo'lib yetishtirish.

Tarbiya kompetensiyalari:

mustaqil tafakkurga ega bo'ladi, ma'suliyat va majburiyatiga amal qiladi, shaxs sifatida o'zini anglaydi, mustaqil sog'lom fikrga ega bo'ladi, orasta kiyinadi va sog'lom turmush tarziga amal qiladi.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko'rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko'rsam tezroq o'rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko'rgazmalar va tarqatma materiallar, o'quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so'rash: a) Savol – javob o'tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Insonning eng muhim kashfiyoti

Akmal bilan Madina maktabdagi tarix xonasiga kirib, qadimgi odamlarning hayoti haqidagi suratlarni ko'rib qolishdi.

- Ehhe! - dedi Akmal. - Mana bu hayvonlarni qara! Muncha katta bular! Ular odamdan bir necha baravar katta bolgan ekan-ku!

- Bechora odamlar u paytda qanday qilib tirik qolgan ekan-a? - o'ylanib qoldi Madina. Qadim-qadim zamonlarda, insoniyat, ilk paydo bolgan davrda odamlar

sayyoramizdagi eng ojiz mavjudotlardan biri bo'lgan, deyish mumkin. Chunki bu davrda yer yuzida bahaybat, kuchli jonivorlar, ayniqsa, yirtqich hayvonlar ham yashagan. Odamning esa ularnikidek baquvvat mushaklari, qoziq tishlari, tirnoqlari bo'lmagan. Omon qolish uchun odamlar guruhlariga birlashishlari kerak bo'lgan. Bundan tashqari, ular o'zaro muvofiqlikda harakat qilishlari va maqsadga erishishlari uchun o'z muloqot tilini ishlab chiqqanlar.

Olimlarning aytishicha, insondan oldin sayyoramizda gala bo'lib yashagan yirtqichlar hukmron bo'lgan ekan. Odamlar so'yil,



nayza yasashni o'rganib, ov qilishni boshlashgan. Ular yirtqichlar kabi to'da bo'lib, hujumni turli tomondan birgalikda amalga oshirgan. Inson so'zlay olgani uchun yirtqichlardan ustun bo'lib, bir-biri bilan bemalol xabarlasha olgan. Shu tariqa qadimgi odamlarda hamkorlik, mehnat taqsimoti paydo bo'lgan. Ba'zilar ov qilishgan bolsa, boshqalari bolalarga qarab turgan, ov uchun qurol yasagan. Bir odam falokatga uchrasa, boshqa odamlar yordam berib, uni qutqarib qolishgan.

Ammo eng muhimi bu ham emas edi. Inson o'ziga berilgan ong tufayli yangi qurol, ov qilishning yangi usuli, olovni o'chirmay saqlash kabi foydali usullarni kashf qilsa, bu bilim va ko'nikmalarni keyingi avlodga yetkaza olgan. Masalan, qurolning yangi turini yaratish uchun oldingi ne-ne ajdodlarning ilmidan, tajribasidan foydalanilgan. Shu tariqa ovning yangi usullari o'rganilgan va takomillashib boravergan. Oradan ming yilliklar olgani sari insonning bilimi, tajribasi, imkoniyatlari kengayib boravergan.

Insonlar ko'payib, yer yuzida keng tarqala boshlagach, jamoalar, qabilalar paydo bo'lgan. Asta-sekin ularning nutqi ham turlicha rivojlanib, tillar paydo bo'lgan. Mukammal muloqot vositasi tufayli insoniyat jamoalari nafaqat omon qolish va samarali hamkorlik texnologiyasini, balki madaniy-ma'naviy merosni ham to'plab, keyingi avlodlarga yetkazishga imkon bergan. Shuning uchun til insonning eng qimmatbaho boyligi hisoblangan.

Ko'pchilik jonivorlar to'da bolib, uyalarda yashaydi, poda yoki koloniyalar tashkil qiladi. Ammo insonlar jamoasi ilgari hech qachon ma'lum bolmagan mutlaqo yangi jamoa edi. Bu jamiyat har bir insonning xatti-harakatlari, his-tuyg'ulari va fikrlari bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos dunyoga aylandi. Shuning uchun inson o'z hamjamiyatiga kuchli darajada bog'liqdir. U insonlardan ajralib qolsa, begona muhitda yolg'iz yashay olmay, insoniy qiyofasini yo'qotib qo'yadi. Aynan mana shu kashfiyot- insoniyat hamjamiyati insonni yer kurrasining xo'jayiniga aylantirdi.

Asrlar o'tib borgani sari odamlar guruh-guruh bo'lib, yashash maydonlarini kengaytirish maqsadida yangi yerlarni o'zlashtira boshlashdi. Inson ovchilik, chorvachilikning yangi turlarini o'zlashtirdi, yovvoyi hayvonlarni qolga o'rgata boshladi. Insoniyat jamoalaridagi hayot yanada murakkab, xilma-xil bolib bordi, a'zolari soni ko'paydi. Uzoq vaqt davomida jamoalar katta urug'-aymoq bolib yashagan qarindoshlardan iborat bo'lib keldi. Keyinchalik qabilalar, qabila ittifoqlari vujudga keldi. Dehqonchilik rivojlana boshlaganidan keyin esa dastlabki millatlar, elatlar, davlatlar paydo bo'la boshladi.

Yozuv paydo bolgan vaqtlardan boshlab insoniyat olami nihoyatda xilma-xil, murakkab jamiyatga aylandi. Millati, tili, diniga ko'ra birlashgan jamiyatlar paydo bo'ldi. Shuningdek, kasb-kori, turmush tarziga ko'ra ham turli jamoalar, masalan, hunarmandlar uyushmalari paydo boldi. Asrlar o'tib, boshqa ko'plab turdagi hamjamiyatlar vujudga keldi. Endi odamlar nafaqat tirik qolish, yashab qolish uchun, balki yagona maqsad - o'zlari muhim deb bilgan tushunchalarga ko'ra ham birlasha boshladilar.





Bugungi kunda nihoyatda xilma-xil hamjamiyatlar bor. Inson qayerda birga yoki bir-biriga yaqin joyda (mamlakat, shahar, qishloq yoki mahallada) yashasa, tabiiy ravishda o'sha joyda hamjamiyatlar paydo bo'ladi. Hamjamiyatda bir xil millat yoki din vakillari, bir xil kasb egalari, bir xil narsaga qiziqadigan odamlar birlashishi mumkin. Demak, har qanday o'xshashlik yangi hamjamiyatning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi mumkin. Mana, bugungi kunda muloqot platformalari orqali ham virtual makonda bir mavzuga bag'ishlangan veb-forumlar, bloglar, guruhlar paydo bolyapti.

Xo'sh, hamjamiyat o'zi nima? Olimlar hamjamiyatga "mushtarak manfaatlarga ega bo'lgan odamlar guruhi", deb ta'rif berishgan. Bir hamjamiyatdagi odamlar qandaydir bir narsaga qiziqadi, ularga o'sha narsa muhim yoki zarur bo'ladi. Odamlar hamjamiyatga birlashsa, muammoni yolg'iz holatdagidan ko'ra osonroq hal qila oladi, yoki hayoti yorqinroq, mazmunliroq bo'ladi. Masalan, shahar shaxmat klubida shu shaharda yashaydigan shaxmatchilar o'z mahoratini oshirishi, vaqtini qiziqarli o'tkazishi mumkin.

A'zolari unchalik ko'p bolmasa (masalan, bir necha yuz kishigacha bo'lsa), hamjamiyatni guruh deb atash ham mumkin. Lekin guruh kichik hamjamiyatga qaraganda kengroq tushunchadir. Guruhda hech qanday munosabat yoki ichki hayot bolmasa, hamjamiyat bo'lmaydi. Ba'zida guruh uzoq vaqt davom etmagani uchun ham hamjamiyat bo'lishga ulgurmaydi. Demak, uzoq vaqt bor bolish ham hamjamiyatning yana bir muhim xususiyati ekan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. Inson nima tufayli sayyoramizdagi eng kuchli mavjudotga aylandi?
2. Nima uchun odamlar doim birlashishga intiladi? Birlashish insonga nima beradi?
3. Insonlar jamoasi hayvonlar to'dasidan nimasi bilan farq qiladi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Jamoalarga, shuningdek, jamoa hisoblanmaydigan odamlar guruhlariga misollar keltiring. Fikringizni asoslang

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Zokirjon.com. veb-sayiti *orqali o‘zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.*

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog‘lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so‘raladi.

Telegramda murojaatingizga o‘z vaqtida javob beriladi

53 listdan iborat 5-sinf tarbiya fanidan II yarim yillik konspektini to‘loq holda olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To‘lov uchun: UZCARD *880*9860230104973329*summa#

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To‘liq holda olganingizdan so‘ng:
Faqat o‘zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali veb-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalariga tarqatmang.

**OMONATGA
HIYONAT QILMANG.**

Bizni xizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quyidagi hujjatlar mavjud.

1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari
2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'g'arak hujjatlari
3. Sinf rahbar hujjatlari
4. Metodbirlashma hujjatlari
5. Ustama hujjatlari
6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar
7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar)
8. Maktab ish hujjatlari
9. Direktor ish hujjatlari
10. MMIBDO' ish hujjatlari
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari
- 12.Psixolog hujjatlari
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari
- 15.Besh tashabbus hujjatlari
16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar